



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Соҳибназар Каримов Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
Diyor Haqberdievich Xolmamatov Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
Rustam Nuridinovich Jiyamuratov Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Ziyobidin Shaminovich Suvonov Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Фарход Бахриддинович Ахроров Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
Shexroza Madjitovna Karimova Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Феруза Асатовна Ишонкулова Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Сарвар Аюбовна Исхакова Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
Zoxid Sobirovich Axmedov Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
Обид Мамаюнович Пардаев Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
Фарход Анварович Сафаров Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилинини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
Orzujon Mamasoliyevich Rajabov Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Bekzod Maxsudovich Abdumannonov Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

чиқишда уларни эътиборга олиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Бундан ташқари хизмат кўрсатиш соҳасидаги тадбиркорлик фаолиятининг кичик ва хусусий шакллари ривожлантириш уларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимига алоҳида эътибор қаратишни ҳам тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 28.01.2022 йил, ПФ № 60.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. uza.uz.
- 3.Boltabaev M.R., Qosimova M.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: NOSHIR, 2011.
- 4.Исхакова С.А. Хизмат кўрсатиш соҳасида тадбиркорлик фаолиятининг хусусиятлари. “Иқтисод ва молия” журнали, №2, 2021.
- 5.Лапуста, М. Г. Предпринимательство: учебное пособие. — М.: ИНФРА-М, 2003.
- 6.Мухаммедов М.М. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари.–Самарқанд: Zarafshon, 2017.
7. Муфтайдинов Қ. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари: иқт.фан.док...дисс.Т. ЎЗМУ. 2004.
- 8.Ходиев Б.Ю., Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик. Т.: ТДИУ, 2010.
- 9.Ғуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. –Т.:Шарқ, 2002.
- 10.Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий сайти. [Электрон ресурс]: URL:www.stat.uz. (кириш санаси: 20.04.2024).

С.Исхакова	S.Iskhakova
Возможности использования потенциала предпринимательства в развитии сферы услуг	Opportunities for using the potential of entrepreneurship in the development of the service sector
Аннотация: в статье анализируются возможности использования потенциала предпринимательства в развитии сферы услуг. Выявлены особенности предпринимательства в сфере услуг и разработаны предложения по развитию предпринимательства в этой сфере.	Abstract: the article analyzes the possibilities of using the potential of entrepreneurship in the development of the service sector. It revealed the specific features of entrepreneurship in the service sector and developed proposals for the development of entrepreneurship in the sector.
Ключевые слова: предпринимательство, предпринимательская деятельность, предприниматель, сфера услуг, услуги, сервис.	Keywords: entrepreneurship, entrepreneurial activity, entrepreneur, service industry, services, service.

Zoxid Sobirovich Axmedov – JizPI katta o‘qituvchisi

TRANSPORT LOGISTIKASI XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARINING QO‘LLANILISHI

<p>Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasini xalqaro transport magistrallariga ulanishi, mamlakatimizning transport mustaqilligini ta‘minlash va tashqi aloqalarni diversifikatsiya qilish orqali transport logistikasi xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati tadqiq etilgan. Milliy mahsulotlarni yetkazib berishda umumiy resurslarni o‘zaro bog‘liq faoliyat bilan taqsimlash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni soddalashtirish, moddiy va nomoddiy aktivlarni jalb etish tranzaksiyon xarajatlarni kamaytirish orqali ma‘lum bir hududning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanishda klasterlash turlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: transport xizmatlari, xalqaro bozorlar, logistika, logistik ta‘minot, transport-logistika infratuzilmasi, logistik klasterlash, logistika jarayonlarini boshqarish, innovatsion tamoyillar.</p>

Kirish. Jahon xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarning globallashuvi, milliy mahsulotlarni mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqishini ta‘minlash xizmatlarining bozori holatini baholash,

transport logistikasi sohasini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish, uning o‘zgarish istiqbollari, tendensiyalari shu jumladan transport logistikasining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, yillik transport xizmatlari ko‘rsatish hajmi 4,2 trln. AQSH dollarini, shundan avtomobil transportining ulushi 2,1 trln. AQSH dollarini tashkil etib, dunyo yalpi ichki mahsuloti tarkibida 10 foizini tashkil etadi [1].

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatilganidek “Mamlakatning xalqaro hamjamiyatda teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish, hamkor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli tarzda muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish, yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni kelishish” mamlakatimizning xalqaro transport magistrallariga ulanishi, transport mustaqilligini ta‘minlash va transport aloqalarini diversifikatsiya qilishga yo‘naltirilishida alohida o‘rin egallaydi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transport logistika xizmatlarining samarali mexanizmlarini takomillashtirish borasida olimlardan B.G.Galstyanning ko‘rsatishicha, “Transport logistikasi - bu sanoat logistikasi muayyan texnologiya, ta‘minot zanjiridagi marshrutlar va logistika, texnologik, operatsiyalar, faoliyat va funksiyalardan tashkil topgan transport vositalari tomonidan mahsulotlarni ko‘chirishdan iborat bo‘lgan tovarlar harakati jarayonida moddiy oqimlarning ishlashi va boshqarilishi va ularga tegishli ta‘minot va unga aloqador oqimlarni tashkil etish”[3].

D.Bauersoksning fikricha esa, logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish obyektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari va ularning imkoniyatlari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiya qilishni boshqarish, yuklarni ortish va tushurish terminallari va chakana do‘konlarga tegishli deb hisoblagan. Logistika infratuzilmasini tashkil etishda ma‘lum geografik joylashuvi bo‘lgan obyektlar, ya‘ni ombor komplekslari sonini aniqlash va har bir joyda saqlanuvchi mahsulot zaxiralarini hisoblash kerak [4].

Mahalliy olimlardan J.Fayzullayevning fikricha, “Transport logistika tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning daromad olishini transport bilan ta‘minlash jarayonida transport vositalaridan ratsional foydalanishga qaratilgan funksiyalar va tashkil etish vositalaridan unumli foydalanishdir”[5].


J.Nosirova esa “Mamlakatimizda logistik xizmatlar xilma-xilligi bu tarmoq tashkilotlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini bermoqda. Logistikaning rivojlanishi avvalambor, avtomobil va temir yo‘llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarini kamaytirishning muhim sharti va omilidir” deb hisoblaydi [6].

R.G‘.Samatovning e‘tirof etishicha “Mujassamlashgan logistik ta‘minot (LT)ni amalga oshirish logistik jarayon ishtirokchilarining ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining quyidagi shakl va uslublari orqali amalga oshiriladi [7]: xo‘jalik aloqalarining shakllanish faoliyatini uning mahsulotlarga bo‘lgan talab va ularni iste‘molchilarga yetkazib berish faoliyati bilan birgalikda olib borilishi, tashish jarayonida yuk jo‘natuvchilarni logistik boshqarishni o‘zaro muvofiqlashtirish, turli xo‘jalik yuritish subyektlari tasarrufida bo‘lgan omborlar va terminallardan birgalikda tizimli foydalanishda kooperatsiyani amalga oshirish, yuk tashish jarayonlarini optimal tashkil etish uchun harakat vositalari, texnik-texnologik elementlar, infratuzilmalar va bu faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar tanlovini amalga oshirish va boshqalar”.

Tadqiqot metodologiyasi. Transport logistika xizmatlarining samarali mexanizmlarini takomillashtirish innovatsion faoliyatni amalga uchun ham, uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun muhim bo‘lgan uslubiyotni tadqiq etish lozim. Maqolada innovatsion logistika mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan turli yangiliklarni qo‘llash orqali logistika jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish usullari keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, mintaqaviy va

xalqaro transport tizimidan manfaatdor davlatlar bilan hamkorlik asosida TL markazlarini tashkil etish va ularning samarali faoliyatini muvofiqlashtirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirini pasaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, innovatsion mexanizmlar vositalari va innovatsion shakllarni tartibga solishga bog‘liq (1-rasm).



1-rasm. Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qamrovi⁸

Innovatsion logistika mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan turli yangiliklarni qo‘llash orqali logistika jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish va mazkur jarayonlardan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi va mazkur munosabatlarning innovatsion shakllarini tartibga solishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiylik - innovatsion logistika tizimlari sohasida turli xil jarayonlar o‘rganilgan, amaliy-ilmiy g‘oyalarni qo‘llashni ifodab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar aylanmasining tashkiliy tizimida innovatsiyalar sohasidagi jarayonlarning uzviy bog‘liq zanjirini yaratish imkonini nazariy jihatdan asoslaydi. Mazkur tamoyil xalqaro standartlarga javob beruvchi, yuqori darajada mexanizatsiyalashgan ko‘p turdagi maqsadlarga xizmat qiluvchi, yuklarni to‘plash va qayta ishlash terminal komplekslari rivojlanishini rag‘batlantiruvchi ushbu soha taraqqiyotning mavjud qonuniyatlari va tendensiyalari joriy etish, mavjudlarini yanada takomillashtirishni nazarda tutadi.

2. Muvofiqlashtirish – logistikaning samarali faoliyatini tartibga solishda muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, transport-logistika markazlari faoliyatini isloh qilish uchun bir qator muhim ishlarni amalga oshirish, jumladan transport-logistikasi sohasida “aniq vaqt” va “eshikdan eshikkacha” prinsip asosida ishlovchi, bojxona, transport – ekspeditorlik, omborxon va informatsion logistika sohasida to‘liq kompleks xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatlariga ega transport-logistika markazlarini tashkil etish, bu borada atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, xalqaro ekologik normalarga rioya qilish, ekologik xavfsizlik tamoyilidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi va aholining turmush darajasini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

3. Axborot bilan ta’minlanish - transport-logistika sohasini rivojlantirish uchun eng avvalo logistika ekspeditorlik xizmatlarini hamda multimodal logistika markazlarini masofaviy xizmatlar dinamikasi, tarkibi va ko‘lamini ifodalovchi to‘liq axborotlarni yig‘ish hisoblanadi. Mazkur axborotlar har qanday xizmatlar ayniqsa, masofaviy xizmatlarning adekvat tavsif va to‘liq tassavur hosil qilish asosida tezkor chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan

Xulosa va takliflar. Bizningcha, **transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlar** sifatini oshirishning imkoniyatlariga quyidagilar kiradi:

- material, axborot va boshqa kerakli oqimlarni integrallashgan kompleks tizimlarini takomillashtirish va raqamlashtirish;
- ishlab chiqarish va muomala sohalarida logistik imkoniyatlardan foydalanishni nazoratga olish, ularni rejalashtirish va strategik muvofiqlashtirish;
- bozor muhitini hisobga olgan holda tanlab olingan strategiya doirasida logistik konvensiyani doimiy mukammallashtirish va transport-logistika jarayonlari texnologiyasini sifatli ta’minlay oladigan malakali kadrlar bilan ta’minlash;
- xalqaro yo’nalishlarda xizmat ko’rsatuvchi transport korxonalarining raqobatdoshligini oshirish bo’yicha samarali chora-tadbirlarni qo’llash;
- respublikamizda transport-logistik markazlar va xizmat ko’rsatuvchi infratuzilma obyektlarining optimal joylashuvini ta’minlash va transport-logistik xizmatlari ko’rsatish operatorlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;
- sohada innovatsion muhitni yaratish orqali milliy operatorlarning axborot texnologiyalari va vositalari bilan ta’minoti hamda boshqaruvda ulardan keng foydalanishni ta’minlash;
- transport-logistik tizim ishtirokchilarining xalqaro iqtisodiy aloqalarini oqilona tashkil etish va boshqalar.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. www/worldbank.org.
2. 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Lex.uz.
3. Galstyan B.G. Transportnaya logistika, yee suщnost i zadachi // Molodoy uchenyy. – 2018. № 51 S. 224-225.
4. Bauersoks D. Logistika. Integrirovannaya sep postavok. – M.: Olimp-Biznes, S.75-76.
5. Fayzullayev J.S. Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system. // Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1.
6. Samatov R.G‘. “Raqobat muhitida avtomobil transporti logistik tizimi faoliyatini takomillashtirish” mavzusidagi t.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent Avtomobil-yo‘llar instituti. 2012.- 44 b.
7. Nosirova J. O‘zbekistonda logistika xizmatining rivojlanishi va istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. TDIU. № 4, 2016 yil. www.iqtisodiyot.uz -2 B.
8. Axmedov Z.S. Transport logistikasi xizmatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari // Agro ilm. O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnali ilmiy ilovasi. Toshkent, 2020.-№3 (66). -103-104 b.(05.00.00. №15).

<p>З. Ахмедов</p> <p>Применение инновационных процессов для повышения эффективности транспортно-логистических услуг</p> <p>Аннотация: в данной статье рассматривается важность развития транспортно-логистических услуг путем подключения Республики Узбекистан к международным транспортным магистралям, обеспечения независимости транспорта нашей страны и диверсификации внешних связей. Были даны рекомендации по совершенствованию видов кластеризации в использовании конкурентных преимуществ конкретной области путем разделения общих ресурсов при поставке национальной продукции по взаимозависимым видам деятельности.</p> <p>Ключевые слова: транспортный сервис, международные рынки, логистика, логистика снабжения, транспортно-логистическая инфраструктура, кластерная логистика, логистическая кластеризация, управление логистическими процессами.</p>	<p>Z.Akhmedov</p> <p>Use of innovative processes for increasing the efficiency of transport logistics services</p> <p>Abstract: this article discusses the importance of developing transport and logistics services by connecting the Republic of Uzbekistan to international transport routes, ensuring the independence of our country's transport and diversifying external relations. Recommendations were given to improve the types of clustering in using the competitive advantages of a particular area by dividing common resources in the supply of national products for interdependent activities.</p> <p>Keywords: transport service, international markets, logistics, logistics of supply, transport and logistics infrastructure, cluster logistics, logistics clustering, logistics process management.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.